

BOLAJAK XORIJIY TIL O'QITUVCHILARNING TOLERANTLIK TAFAKKURINI "SOFT SKILLS" ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Умурзакова Дилфуза Илхомовна

Фарғона давлат университети

мустақил тадқиқотчиси

e-mail: ilmiy@inbox.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7944184>

Аннотация: Мазкур мақолада ҳозирги кунда таълим тизимида универсал компетенциялар SOFT SKILLS, яъни ҳаётӣ ва мослашувчанлик кўникмаларга эга бўлишлик билан изоҳланади. Ҳаётӣ ва мослашувчанлик кўникмаларни муҳим ва таянч билим кўникмалар сифатида кўриб чиқадиган бўлса, улар инсон учун ўзи танлаган касбий фаолиятида муваффақиятли ишлаб кетишга имкон беришини яққол кўриш мумкин. Мамлакатнинг ижтимоӣ ва иқтисодӣ тараққиети истиқболларидан, жамият эҳтиёжларидан, фан, маданият, техника ва технологиянинг замонавий ютуқларидан келиб чиққан ҳолда, қайта қуришга қаратилганлиги таълим олувчиларда SOFT SKILLSни қўллаш орқали, унинг муваффақиятини белгилайди.

Калит сўзлар: маънавий-ахлоқӣ фазилатлар, ахлоқӣ, эстетик, Ватанпарварлик, инсонпарварлик, ҳаётӣ, мослашувчанлик, ижтимоӣ-сиёсий, иқтисодӣ-маданий, илм-маърифат, инновация, илм-фан, таълим-тарбия, миллий-модел, глобаллашув.

Ҳозирги кунда хорижий тилларни о'қитишнинг о'зига хос педагогик тизими ва та'лим хусусияти "Soft skills" имкониятларидан фойдаланиш заруратини yuzaga kelmoqda. Buning uchun bo'lajak хорижий тил о'қитувчиларини tayyorlashda, ularda ijodiy yondashuv, kreativlik ko'nikmaalarini rivojlantirishda "Soft skills" dan unumli va to'g'ri foydalanish tizimini yaratish talab etiladi. Bu esa yangicha ta'lim texnologiyasi bo'lgan "Soft skills" ning tolerantlik tafakkurini rivojlantirishga yo'naltiruvchi imkoniyatlaridan foydalanish va bu asosda dars metodikasini ishlab chiqishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Chunki хорижий тилларни о'қитишнинг сифати va samaradorligi dars jarayoniga ijodiy yondashuvga, hamkorlik pedagogikasiga bog'liq ekanligi, shu bois bo'lajak хорижий тил о'қитувчиларида tolerantlik tafakkurini rivojlantirishda "Soft skills" asosida texnologiyasi imkoniyatlaridan unumli foydalaish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida ham zamonaviy pedagogikaning innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, omilkor o'qitish metodikasini ishlab chiqishga doir ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bo'lajak хорижий тил о'қитувчиларида tolerantlik tafakkurini "Soft skills" asosida rivojlantirish tizimini takomillashtirishdagi vazifalar;

- ❖ bo'lajak хорижий тил о'қитувчиларида tolerantlik tafakkurini "Soft skills" asosida rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi milliy-ma'naviy va psixologik-pedagogik omillarning o'zaro aloqadorligi, ijtimoiy zaruratini aniqlash;
- ❖ bo'lajak хорижий тил о'қитувчиларида tolerantlik tafakkurini "Soft skills" asosida rivojlantirish mezonlari, ko'rsatkichlari va darajasini aniqlashtirish;
- ❖ bo'lajak хорижий тил о'қитувчиларида tolerantlik tafakkurini "Soft skills" asosida rivojlantirish modelini ishlab chiqish;
- ❖ bo'lajak хорижий тил о'қитувчиларида tolerantlik tafakkurini "Soft skills" asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan interfaol o'qitish metodlari va texnologiyasi takomillashtirishdan iborat.

Uzluksiz ta'lim davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim oluvchilarda universal kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Zamonaviy adabiyotlarda ushbu kompetensiyalarni izohlashga oid bir nechta yondashuvlar mavjud. Xususan, ko'nikmalarning "hayotiy" va "moslashuvchanlik" tushunchalari qo'llanilmoqda. Ushbu tushunchalarni uzluksiz ta'limda qo'llanilish imkoniyatlarini aniqlashdan iboratdir. Ushbu mavzudagi ilmiy ishlarning tahlili tushunchalar mazmun-mohiyatidagi nozik farqlar, uzluksiz ta'limda ushbu tushunchalarni qo'llashning muhim sohalari va foydalanishning imkoniyatlari haqidagi xulosa chiqarishga yordam beradi. Ta'lim sohasidagi O'zbekiston davlatining siyosati Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining[1] uzluksiz ta'limning barcha turlarida amalga oshirilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu konsepsiyaning dolzarbligi shu bilan izohlanadiki, raqamli iqtisodiyotni tez sur'atlarda o'sib borishi bilan kadrlarning doimiy o'zustida ishlab borishga zaruriyati hamda nafaqat tor doiradagi mutaxassislikka yo'naltirilgan ko'nikmalar majmuasiga ega kadrlar, balki keng ko'lamli universal kompetensiyalarga ega mutaxassislarga ehtiyojning mavjudligidadir. Universal kompetensiyalar hozirda SOFT SKILLS, ya'ni hayotiy va moslashuvchanlik ko'nikmalarga ega bo'lishlik bilan izohlanadi. Hayotiy va moslashuvchanlik ko'nikmalarini muhim va tayanch bilim, ko'nikmalar sifatida ko'rib chiqiladigan bo'lsa, ular inson uchun o'zi tanlagan kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli ishlab ketishiga imkon berishini yaqqol ko'rish mumkin.

Shuningdek, ushbu ko'nikmalarni shakllantirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlar mahalliy ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarni yanada boyitadi.

Chunonchi, dasturning vazifalari sirasiga kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurishga qaratilganligi ta'lim oluvchilarda SOFT SKILLSni shakllantirilishi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi. Biroq, bugungi kunda mavjud an'anaviy ta'lim tizim, ya'ni uzluksiz ta'lim tizimida qo'llanilayotgan o'quv dasturlari, o'quv jarayonlari hamda "kelajak kompetensiyalari" da'vo qiladigan talablar o'rtasidagi jarlik mavjuddir[2]. Bu esa SOFT SKILLSni uzluksiz ta'lim tizimga qo'llashning yanada dolzarbligini oshiradi.

Soft-skills ko'nikmalarini qanday rivojlantirish mumkin? Ishda tezda ta'sir ko'rsatadigan natijalarga tez fursatda erishishni ko'zda tutilmaydi. U yoki bu ko'nikmani o'zlashtirish uchun vaqt talab etiladi.

Bunda esa quyidagilarni inobatga olish zarur.

- Qayta aloqani o'rnatish
- O'z ustida ishlash
- Boshqa kishilar yordamida o'qish va mentvorking
- Maxsus vazifalarni bajarish.

Pedagogika fanida ushbu holatda o'ziga o'zi xizmat qilishning elementar va "yashab qolish" ko'nikmalari jamiyatdagi kognitiv yoki boshqa jarayonlarni izdan chiqqanligi sababli yo'qotilgan alohida ijtimoiy ko'nikmalarni o'rnini qoplash sifatida qarab chiqiladi. Psixologik fanlar esa "hayotiy ko'nikma" tushunchasi shaxsning psixologik yosh me'yorlariga ko'ra qo'llaniladi[3].

Biroq, bu qatordagi cheklovlar ziddiyatlarni keltirib chiqaradi, bu esa tashkil etiladigan ta'limiy jarayonlar doirasidagi pedagogik vazifalarni shakllantirishni qiyinlashtiradi. Bunda "hayotiy" ko'nikmalarni takomillashtirish yoki shakllanib bo'lingan o'zini tutish uslubi, o'ziga

va atrof-olamga nisbatan qadriyatli munosabatlar kabi malakalar asosida moslashuvchan ko'nikmalar va ta'lim oluvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

References:

1. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2019 йил 8 октябрь, ПФ-5847 сон.
2. Федорова О.В. Формирование компетенций проектной деятельности в соответствии с профессиональными стандартами у студентов факультета информационных технологий вуза // Международный электронный журнал "Образовательные технологии и общество (Educational Technology&Society)" - 2016.- V.19.-№1.-С.476-484.-ISSN1436-4522. URL: <http://ifets.ieee.org/russian/periodical/journal.html>.
3. Measuring soft skills&life skills in international youth development programs.- URL:<https://www.fhi360.org/sites/default/files/media/documents/resource-yp-measuring-soft-skills.pdf>(дата обращения: 09.10.2019).
4. 4.Аслонов. И.Н. Ўқувчиларни касбга йўналтиришда оила, маҳалла ва таълим муассасаларининг ҳамкорлиги масалалари. 2016 й.
5. Рискулова К.Д. “Бўлажак инглиз тили ўқитувчилари социолингвистик компетентлигини шакллантириш тизими” диссертацияси автореферати. Тошкент 2017й.
6. Жуманазаров. У. У. “Таълимни рақамлаштириш муҳитида бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг лингвистик компетенциясини ривожлантириш”. Диссертацияси // автореферати. Жиззах 2021й.
7. Гайничева И.А. Развитие коммуникативной компетентности студента в процессе педагогической практики в вузе // Высшее образование сегодня. – 2014. - №12. – С. 19-22.